

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 8.81.81-23

“GULISTON” ASARINING O’RGANILISHI VA UNING TARJIMALARI**ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ГУЛИСТАН» И ЕГО ПЕРЕВОДЫ****STUDY OF THE WORK "GULISTAN" AND ITS TRANSLATIONS**

Turdaliyev Olimjon Fayzullajon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Sa'diy Sheroziy hayoti davomida ko'plab asarlar yozib qoldirdi. Ularning ichida "Guliston" asari alohida o'rin tutadi. Bu asar o'rta asrlardayoq dunyo xalqlarining diqqatini o'ziga qaratgan. Uning tadqiq etilishi dunyoning turli tillariga tarjima qilinishidan boshlangan. Keyingi davrlarda esa asar tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik, pedagogika nuqtayi nazaridan olimlar tomonidan tadqiq etildi. Maqolada asarning turli tillarga qilingan tarjimalari va asar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar xususida so'z yuritiladi.

Аннотация

Saadi Shirazi za svoju zhizn' napisał mnozhestvo proizvedeniy. Среди них особое место занимает работа «Гулистан». Это произведение привлекло внимание народов мира уже в средние века. Её исследования начались с её перевода на разные языки мира. В более поздние периоды произведение изучалось учеными с точки зрения языкознания, литературоведения, философии, политологии и педагогики. В статье говорится о переводах произведения на разные языки и научных исследованиях, проведенных по произведению.

Abstract

Saadi Shirazi wrote many works during his life. The work "Gulistan" has a special place among them. This work attracted the attention of the peoples of the world already in the Middle Ages. Its research began with its translation into different languages of the world. In later periods, the work was studied by scientists from the point of view of linguistics, literary studies, philosophy, political science, and pedagogy. The article talks about the translations of the work into different languages and the scientific research conducted on the work.

Kalit so'zlar: sa'diyshunoslik, tarjima, shart, Sa'diy tili, tilshunoslik.

Ключевые слова: Саадиеведение, перевод, комментарий, язык Саади, лингвистика.

Key words: Saadi studies, translation, commentary, Saadi's language, linguistics.

KIRISH

Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy Sharq mumtoz madaniyatining yirik namoyandalaridan biri sanaladi. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslihiddin Sa'diy Sheroziy bo'lib, Sharq va G'arbda Shayx Sa'diy degan nom bilan ulug'lanadi. Olim va tarjimon Sh.Shomammedovning ta'kidlashicha, mutafakkirning nomi, tug'ilgan yili, taxallusi manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Xususan, ayrim manbalarda uning nomi Mushrifiddin ibn Muslihiddin Abdulloh, boshqalarida esa Muslihiddin Sa'diy Sheroziy deya keltirilgan. Tug'ilgan yili sanasi ham manbalarda hijriy 580 (milodiy 1184), hijriy 589 (milodiy 1193) hamda milodiy 1204-yil tarzida qayd etiladi. Sa'diyning vafot sanasi borasida sa'diyshunoslar orasida xuddi tug'ilgan sanasi kabi turli fikrlar mavjud. Ba'zilar hijriy 691-yilni (milodiy 1292-yil) uning vafoti sanasi deb bilishadi. "Shavqi Guliston" asarida Sa'diyning piyoda 14 bora haj qilganligi aytiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Guliston" asari XVII asrda ilk bor fransuz diplomati Andre Ris tomonidan fransuz tiliga o'girilgan va 1634-yili Parijda nashr etilgan. 1635-yili asar fransuzchadan nemis tiliga tarjima qilingan. Shundan keyin boshqa g'arb tillari, xususan, rus tiliga o'girilgan. Rus tilida uning 1957-1959-yillarda tarjimalari bosilib chiqqan. Asar Yevropa mamlakatlaridagi maktablarda bir necha

davrlar davomida darslik sifatida o'qitilgan. Uning XIX asr va undan keyingi davrlarda ham Yevropaning ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa tillariga tarjima qilinib, nashr ettirilgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, asarning xitoy tiliga ham bir necha marta o'girilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Tarjimalarning mualliflari sifatida Vang Dzin Jaya, Jang Hong Niana, Yang Van Bao, Shuey Fu Dzienlar ko'rsatiladi [1, 4].

"Guliston" asari turkiy tilga ham bir necha marta tarjima qilingan. Dastlabki tarjima 1390-1391-yillarda Sayfi Saroyi tomonidan "Guliston bit-turkiy" nomi bilan amalga oshirilgan. Uning birgina qo'lyozma nusxasi Gollandiyaning Leyden universitetida (inv. №1355), fotonusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasining sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Asarning ikkinchi tarjimasi Muhammadrizo Ogahiy tomonidan qilingan. Ushbu tarjima haqida Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Ogahiy Sa'diy Sheroziy hikoyatlarining badiiy tarovatini, ruhini o'quvchiga yetkazadi. Sa'diy sa'jlari, ixcham, lekin lo'nda aforistik jumalarda tuzilgan nasri, qit'a va ruboiylari, serohang, jarangdor ifodalari Ogahiy tarjimasida o'ziga xos nafas bilan aks etgan" [2, 5].

Uchinchi tarjima esa toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li tomonidan bajarilgan bo'lib, u "Shavqi Guliston" deb nomlangan. Tarjimon madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so'z va iboralarini sharhlagan va forsiy asliyat bilan birga "G'ulomiya" matbaasida 1909-yilda nashr ettirgan. Mutaxassislar tomonidan bu tarjimaga yuqori baho berilgan: "Murodxo'ja ishida she'rlar tarjimasi shakl va ma'no jihatidan asliyatga yaqindir va Sa'diy she'riyatining barcha jozibasini saqlagan" [3, 123].

1968-yili "Guliston"ning to'rtinchi tarjimasi nashr qilingan bo'lib, unda she'riy matnlarni G'afur G'ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o'zbek tiliga o'g'irishgan.

Sa'diy shaxsi, uning "Guliston" asari yuzasidan adabiyotshunoslar va tilshunoslar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, asarga sharhlar yozildi. Xususan, tojik olimlari tomonidan bu borada keng ko'lami ishlar qilindi. Ayniqsa, bu borada Sadridin Ayniy tomonidan amalga oshirilgan ishlar katta ahamiyat kasb etadi [4, 54]. Uning ishlari o'zidan keyingi tadqiqotlarga asos sifatida xizmat qilgan deyish mumkin. Shayx Sa'diyning g'azallarini kirill alifbosiga asoslangan tojik yozuvida A.Dehotiy va I.Alizodalar "Muntaxabi kulliyot" nomi bilan 1956-yilda birinchi marta nashrga tayyorlagan [5, 8]. Adabiyotshunos H.Zo'irov [6, 236] uning hayoti va tasavvufiy qarashlari tadqiqot olib borgan bo'lsa, A.Rahnamo [7, 91] "Guliston" asaridagi ba'zi hikoyatlar va uning debocha qismiga hozirgi tojik adabiy tilida sharhlar yozgan Asarning hozirgi tojik tilidagi to'liq sharhi O.Shakurzoda tomonidan tayyorlangan. Ushbu sharh eronlik M.Furug'iy tomonidan tayyorlangan nashriga asoslangan holda G.Yusufiyning muqaddimasi bilan chop qilingan. Uni tojik tilidagi mukammal sharh sifatida baholash mumkin, chunki unda Qur'oni Karim va hadislardan keltirilgan iqtiboslar, arabiy istilohlar, tushunilishi qiyin jumalarga izohlar berilgan va ba'zi grammatik qoidalar kitobxonga sodda tilda tushuntirilgan. Adabiyotshunos R.Aliyev tomonidan "Guliston" asarining ilmiy-tanqidiy matni tayyorlangan [3, 12]. Q.Rasuliyon va A.Mo'soyevlar tomonidan Sa'diy She'roziyning 101 g'azali bir kitobga jamlanib, nashr ettirilgan [9, 112].

Eron adabiyotshunoslari va tilshunoslari ham Sa'diy Sheroziyning hayoti va ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirishgan. Xususan, A.Zarrinkub Sa'diyning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan risola nashr qilgan [10, 196]. A.Mahmudiy "Guliston" asaridagi noverbal muloqotni o'rgangan bo'lsa, [11, 234] M.Asil va S.Ahmadiylar asardagi ijtimoiy tabaqalanishni tahlil qilishgan [12, 71]. Sa'diyga va boshqa ijodkorlarga nisbat berilgan olti risolaning til uslubi bo'yicha M.Fatuhiy ish olib borgan.[13, 234] Asarning psixolingvistik tahlili F.Rahmoniy tomonidan amalga oshirilgan. [14, 59]

Keyingi davrlarda "Guliston" asarini o'rganishda Eronda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. F.Muayniy 1998-2007-yillar oralig'ida yozilgan "Guliston" asariga oid maqolalarni o'rganishga harakat qilgan va asarga yangicha munosabatda yondashilgan maqolalarni o'rganib chiqadi. Bu maqola asardagi ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, psixologik, sotsiologik va boshqa mavzularda yozilgan 65 ta maqolaning sharhini o'z ichiga oladi. "Guliston" asarida qo'llangan oyat va hadislarning funksiyasi bo'yicha A.Amiriy va N.Faollar maqola e'lon qilishgan [15, 35].

TILSHUNOSLIK

“Guliston” asari bo'yicha H.Rahnamo tomonidan yozilgan maqola katta ahamiyatga egadir. Unda muallif “Guliston” nasrini “avvalgi mualliflar nasriy san'atining mukammal shakli va insho yozish uslubi” sifatida baholaydi va Erondan tashqaridagi sharqshunoslar va sa'diyshunos olimlarning fikrlarini keltirgan holda, bu asarning global jihatini yoritib beradi. “Guliston” asarining tarjimalari bilan tanishtirishdan tashqari, uning Erondan tashqaridagi o'rni va G'arb adabiyotiga ta'siri masalalariga to'xtaladi. “Guliston” asarining til xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan A.Ravoqiyning maqolasida esa Sa'diy tili boshqa klassik shoirlar, xususan, Mavlono Rumiyligiga qiyoslanadi [16, 137]. P.Albo'rz esa “Guliston”ning til va bayon uslubi bo'yicha tadqiq etgan. Ushbu maqolada asosiy e'tibor Sa'diyning nasrda qofiya yasash mahoratini ochib berishga qaratilgan [17, 43].

Sa'diy Sheroziyning ta'lim va tarbiya borasidagi fikrlari ham olimlar nigohidan chetda qolmagan. Xususan, J.Fayzaliyev A.G'ulomovlar tomonidan uning pedagogik qarashlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Bu o'rinda aytish joizki, J.Fayzaliyevning ishi to'laligicha Sa'diy shaxsiga qaratilmagan, lekin uning “Guliston” va “Bo'ston” asarlari olimning tadqiqot obyektlari qatoridan o'rin olgan.

“Guliston” asarining o'ziga xos uslubi, tilining jozibasi nafaqat adabiyotshunoslar, balki ko'pgina tilshunos olimlarning ham diqqati o'ziga jalb etgan. Tilshunoslar tomonidan asar turli aspektlarda tadqiq etilgan. Xususan, o'zbekistonlik tojikzabon olim V.Amon tomonidan “Guliston” asaridagi ba'zi hikoyalar lisoniy (leksik) jihatdan tahlil qilingan [18, 35].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar Sa'diy Sheroziyning shaxsiyati va uning birgina “Guliston” asari yuzasidan amalga oshirilgan. Uning “Bo'ston” asari va g'azallari yuzasidan qilingan ishlar fors tili va adabiyotida mingga yaqindir. Sa'diy Sheroziy asarlari forsiy zabon xalqlar ichida, Sharq va O'rta Osiyoda, rus va Yevropa xalqlari orasida ham keng tarqalgan bo'lib, unga beqiyos shuhrat keltirdi. Tojik adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Sadridin Ayniy Sa'diyga shunday ta'rif bergan edi: “Fors-tojik adabiyotining birinchi satirachisi”. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tinchlik Kengashi binosi peshtoqiga “Guliston”dan olingan quyidagi misralar dunyoning oltita tilida yozib qo'yilgan:

بنی آدم اعضای یک پیکرند
که در آفرینش ز یک گوهرند
چو عضوی ببرد آوزد روزگار
دیگر عضوها را نماند قرار
تو کز محنت دیگران بی غمی
نشاید که نامت نهند آدمی.

Mazmuni: Odam bolalari yaratilishda bir gavhardan bino bo'lganlari uchun bir vujud kabitdirlar. Agar zamon uning biror a'zosiga dard kirgizsa, boshqa a'zolar ham o'z tinchini yo'qotadi, agar sen boshqalarning zahmatidan beg'am bo'lsang, odamiy nomiga munosib emassan.

XULOSA

Ushbu ma'lumotlarning o'zi ham Sa'diy Sheroziy shaxsining buyukligi, “Guliston” asarining esa dunyo miqyosidagi katta asar ekanligi va jahon xalqlari adabiyotida munosib o'ringa egaligini ko'rsatadi. Keltirilgan ma'lumotlar adibning birgina “Guliston” asari yuzasidan ekanligini, uning boshqa nodir asarlari ham mavjudligini hisobga olsak, Sa'diy Sheroziy nafaqat fors-tojik adabiyotining, balki jahon adabiyotining ham buyuk namoyondasi ekanligining guvohi bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ходжамуродова Ш. Особенности изучения и переводы «Гулистан»-а Саади в Китае. – дисс.кан.филол.наук. – Душанбе, 2020. – 144 с.
2. Sa'diy Sheroziy. Hikmatga to'la olam (g'azal, ruboiy...). <https://uzsmart.ru/kutubxona/asariar/3137-hikmatga-to%CA%BBla-olam-g%CA%BBazal-ruboiy-sa%E2%80%99diy-sheroziy.html>.
3. Худойдодов А., Мухаммадзода Дж. Переводы «Гулистон» на узбекский язык в разные периоды. – 123 с. <https://cyberleninka.ru/article/n/perevody-guliston-na-uzbekskiy-vazyk-v-raznye-periody>.
4. Айнӣ С. Шайх Муслихиддин Саъдии Шерозӣ. – Душанбе: Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1942. – 54 с.
5. Саъдии Шерозӣ. Ғазалиёт. – Душанбе: Адиб, 2014. – 108 с.
6. Зоиров Х. Адабиёти тасаввуф (асрҳои XI-XIII). – Хужанд: Ношир, 2013. – 236 с.

7. Раҳнамо А. Шарҳи осонбаён бар дебочаи "Гулистон"-и Шайх Саъдии Шерозӣ ба забони муосири тоҷикӣ. – Душанбе, 2010. – 91 с.
8. Исрофилниё Ш., Раҳнамо А. Шарҳи мунтахаби «Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Душанбе: Пайванд, 2016. – 220 с.
9. Саъдии Шерозӣ, Саду як ғазал. – Душанбе: Ирфон, 2008. – 112 с.
10. عبدالحسين زرین کوب. حدیث خوش سعدي. – تهران: سخن 1379. – 196 ص.
11. [علیرضا محمودی. ارتباطات عبر کلامی در گلستان سعدي. زبان و ادب فارسی \(دانشگاه تبریز\) سال ۴۹ پاییز و زمستان ۱۳۹۵ شماره ۲۳۳.](#)
12. [محمدحسین نیکدار اصل. تحلیلی بر فترندی اجتماعی در گلستان سعدي. – تاریخ ادبیات پاییز و زمستان ۱۳۹۱ شماره ۷۱ پیرویس احمدی.](#)
13. [محمود فتوحی. سبکشناسی رسائل سعدي. – مشهد: دانشگاه فردوسی سعدي شناسی اردیبهشت ۱۳۹۱.](#)
14. [بوستان ادب سال دوم پاییز ۱۳۸۹ شماره ۵ فتح رحمانی. بررسی گلستان سعدي با تکیه بر یافته های روان تحلیلی گری.](#)
15. [احمد امیری خراسانی. شیوه های آیات و احادیث در مکالمه های حکایات گلستان: بوستان ادب سال اول زمستان ۱۳۸۸ شماره ۲ نیمه فعال.](#)
16. [علی رواقی. سعدي و زبان فارسی. سعدي شناسی اردیبهشت ۱۳۸۰ دفتر چهارم.](#)
17. [پرویز التریز. آهنگ گلستان. علوم انسانی دانشگاه الزهراء تاسمان. شماره ۳ و ۲.](#)
18. Амон В. Таҳлили луғавии чанд ҳикояти «Гулистон»-и Саъдии Шерозӣ. – Самарқанд: ДДС, 2004. – 35 с.